

УДК 16.1(4)
Мухамедов Шерзод
Преподаватель
Университет Алфраганус
Узбекистан, Ташкент

Muhammedov Sherzod
O'qituvchi
Alfraganus universiteti
O'zbekiston, Toshkent

Mukhammedov Sherzod
University lecturer
Alfraganus University
Tashkent, Uzbekistan

YUSUF XOS HOJIB “QUTADG‘U BILIG” ASARIDA DAVLAT BOSHQARUVIDA AXLOQIY MASALALAR

Annotatsiya:

Mazkur maqolada “Qutadg‘u bilig” asarida davlat boshqaruvida axloqiy qarashlari, hukmdor o‘zida shakllantirish kerak bo‘lgan fazilatlari haqida yozib, davlat va jamiyat taraqqiyoti omillarini keltiradi. Maqolada XI asr turkiy falsafiy va siyosiy tafakkurining ajoyib yodgorligi bo‘lgan Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilik” asarda bayon etilgan davlat boshqaruvining axloqiy jihatlari ko‘rib chiqiladi. Asar muallifi odob-axloq, adolat va hokimiyat mas’uliyati kabi muhim masalalarni ko‘tarib, hukmdor, maslahatchi va amaldorlarning fazilatlari muhimligini ta’kidlaydi. Dono davlat boshqaruvi, halollik, xalqqa xizmat qilish g‘oyalari hamda shaxsiy axloq va davlat faoliyati o‘rtasidagi uyg‘unlik tahlil qilinadi. Tadqiqot Xos Hojib g‘oyalarining hokimiyat etikasining zamonaviy tushunchasi uchun dolzarbligini ko‘rsatadi va siyosiy madaniyat kontekstida uning qarashlarining universalligini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: Yusuf Xos Hojib, Qutadg‘u bilig, hukmdor, vazir, ma’rifat, axloq, axloqiy qadriyatlar, fazilat.

ПРОИЗВЕДЕНИЕ ЮСУФА ХОС ХАДЖИБА «КУТАДГУ БИЛГ» ЭТИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ В ГОСУДАРСТВЕННОМ УПРАВЛЕНИИ

Аннотация: В данной работе рассматриваются этические аспекты государственного управления, изложенные в трактате Юсуфа Хос Хаджиба «Кутадгу Билик» — выдающемся памятнике тюркской философской и политической мысли XI века. Автор произведения поднимает ключевые вопросы морали, справедливости и ответственности власти, подчеркивая важность добродетелей правителя, советников и чиновников. Анализируются идеалы мудрого правления, честности, служения народу и гармонии между личной нравственностью и государственной деятельностью. Исследование демонстрирует актуальность идей Хос Хаджиба для современного понимания этики власти и подчеркивает универсальность его взглядов в контексте политической культуры.

Ключевые слова: Юсуф Хос Хаджиб, знание Кутадгу, правитель, министр, просвещение, мораль, моральные ценности, добродетель.

The Work of Yusuf Khash Hajib “Kutadgu Bilig” Ethical Issues in Public Administration

Abstract:

This paper examines the ethical aspects of public administration as presented in the treatise *Kutadgu Bilig* by Yusuf Khash Hajib, an outstanding monument of Turkic philosophical and political thought of the 11th century. The author addresses key issues of morality, justice, and the responsibility of power, emphasizing the importance of virtues in rulers, advisers, and officials. The study analyzes the ideals of wise governance, honesty, service to the people, and harmony between personal morality and state activity. The research demonstrates the relevance of Khash Hajib's ideas for the modern understanding of the ethics of power and highlights the universal nature of his views within the context of political culture.

Keywords: Yusuf Khash Hajib, *Kutadgu Bilig*, ruler, minister, enlightenment, morality, moral values, virtue.

“Qutadg'u Bilig” asari turkiy xalq adabiyotining noyob qismi sifatida tarixda o'z o'rnini egallagan va “Qutadgu bilig” islom-turk mumtoz adabiyotining ilk turkiy asaridir. Ushbu asar 11-asrda yozilgan bo'lib, unda Yusuf Xos Hojib davlat boshqaruvi, ijtimoiy adolat va axloqiy tamoyillarni o'zida aks ettiradi. Asar o'zidagi ko'plab metaforalar va ramzlar orqali o'qiydiganlar uchun bilim va hikmat manbai bo'lib xizmat qiladi. Yusuf Xos Hojib avvalambor adolatli rahbar va hukmdor bo'lish zarurligini ta'kidlaydi. Ushbu asar mantiqiy tuzilishi, ichki

ko'rsatmalari va tarixiy konteksti bilan o'z zamonasida juda dolzarb bo'lgan. Ushbu kitob qaysi iqlim yoki mamlakatga, qaysi qishloq va shaharga yetib borgan bo'lsa, o'sha yerda munosib nom berildi. Chinlilar “Adab ul-muluk” deyishgan bo'lsa, mochinliklar “Anis ul-mamolik” deb atashdi, Mashriq elining ulamolari, donishmandlari esa yakdillik bilan “Ziynat ulumaro” deya nom berdilar. Eronliklar buni “Shohnoma” deb qabul qilishdi. Turonliklar orasida esa u “Qutadg'u bilig” nomi bilan mashhur bo'ldi. Yuqorida aytilganidek “Adab al mulk” nomidan shuni bilish mumkinki davlat va jamiyat boshqaruvi hamda taraqqiyoti uchun asarda mavjud bo'lgan turli hikmatli so'zlar jamlangan bo'lib, ularni chuqur tahlil etadigan bo'lsak albatta XI asrga oid ijtimoiy-siyosiy masalalarning falsafiy qarashlar yuzaga keladi. Asarda davlat boshqaruviga tegishli hikmatlar adib tomonidan ma'lumot, tavsiya, fikr va qarashlar berilgan. U dunyodagi hamma ezgu ishlarda qo'l keladi. Unda mulk tutishning sir-u asrori, mamlakatni idora qilish tartibi, sharti, shuningdek, mol-u mulk, el-yurtning mangu qolishi, gullab-yashnashi va uning xarob bo'lish belgilari, lashkar va xos yigitlar, boshqa masalalar saylanib, tanlanib gapirilgan.

Yusuf Xos Hojib — o'z vaqtida davlat boshqaruvi, adabiyot va falsafa sohasida o'ziga xos taassurot qoldirgan o'z davrinning yirik, ko'zga ko'ringan adib, mutafakkir bo'lib, u o'zining mashhur asari “Qutadg'u Bilig” bilan tanilgan. Ushbu asar ko'plab falsafiy, axloqiy va siyosiy masalalarni yoritib, o'z davrining madaniy va ijtimoiy hayotida muhim ahamiyatga ega. Davlat boshqaruvi, adolat, aql, davlat va qanoat tushunchalari “Qutadg'u Bilig”da alohida o'rin egallaydi. Ushbu maqolada biz Yusuf Xos Hojibning asaridagi davlat boshqaruvi tushunchalarini, ayniqsa adolat, aql, davlat va qanoat tushunchalarining talqinini batafsil ko'rib chiqamiz.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u Bilig” asarida davlat tushunchasi ham muhim ahamiyatga ega. Davlat, fuqarolar o'rtasidagi muloqot, iqtisodiy rivojlanish va madaniy almashuvlarni ta'minlaydi. Davlat fikri, ijtimoiy hayotni boshqarish va barqarorlikni saqlash uchun zarur. Davlatni kuchli, adolatli va aqlli boshqaruv bilan saqlash zarur. Asar asosida to'rt narsa yotadi. Biri to'trilikka tayanch —

Adolat, Biri Davlat erur, u qutli g'oyat. Uchinchi — ulug'lik Aql ham Zako, To'rtinchi — Qanoat erur bebaho. "Qutadg'u bilig" asarining markaziy qahramonlaridan biri Oyto'ldidir. Oyto'ldi o'ziga yarasha ramziy ma'noga ega adabiy qahramon. Uning turkiy ismidagi oy va to'ldi qismlari tagma'nosida bilim olgani sari oyday to'lishib borayotgan, mukammallikka intilayotgan shaxs degan tushunchalar yotadi. "Oyto'ldi – demak u bilim egallash riyozatlari bilan hilol – yangi oy edim, oyday to'ldim.

Bularning har biri yana alohida-alohida nomlarga ega. Adolatning nomi — Kuntug'di. U asarda elig vazifasida keladi. Elig podsho demakdir. Davlatning ismi — Oyto'ldi. U vazir mansabida. Zakovat, aql esa O'gdulmish deyilgan. O'gdulmish Oyto'ldining o'g'li sifatida namoyon bo'ladi. Qanoat O'zg'urmish nomini oladi. U asarda vazirning qarindoshi sifatida ko'rinadi.

Muallif ularning suhbatlari orqali jamiyat tuzilishi va undagi shaxsning rolini tahlil qiladi, axloq, qismat, kuch-qudrat, ma'naviyat masalalarini ko'taradi.

Yusuf Hos Hojib adolatli hokimiyat g'oyasi adolatni davlat tuzilishining asosi deb biladi. U hukmdor nafaqat kuchli, balki dono, fazilatli, xalqni farovonlikka yetaklashga qodir bo'lishi kerak, deb ta'kidlaydi. Adib o'zining falsafiy qarashida axloq va shaxsiy fazilat inson uchun muhim deb qaratilgan. U bilim, o'zini tuta bilish, halollik, ehtirolarni nazorat qilish va umumiy manfaatlariga xizmat qilishni ta'kidlaydi.

Allomaning fikricha, bilim hukmdorning xohish-istagidan muhim va yuqoridir. Garchi hokimiyatning ilohiyligi haqidagi qarashlarga monand fikrlasada, Yusuf Xos Hojib hukmdor bilimdon maslahatgo'yni yo'l-yo'riqlariga muhtoj ekanini uqtirib o'tadi. Chunki bilimsizlikning o'rnini na hokimiyat, na boylik to'ldira oladi. Bilimgina insonni hayotdagi barcha qiyinchilik va muammolardan xalos etishga yordam berishi mumkin. Bilimsiz inson o'ziga va oilasiga, atrofdagilarga zarar yetkazsa, bilimsiz hukmdor butun jamiyatning kulfatidir. Shu nuqtayi nazardan allomaning bilimning determinantligi haqidagi

konsepsiyasi, uning hukmdorlar uchun pand-nasihat tarzida yozilgan asarida markaziy mavzulardan biriga aylangan:

“Qutadg‘u bilig” asarda adib davlat boshqaruvni adolat, halollik, tadbirli, kabi fazilatlarni ilari surib Kuntug‘di hikoyasida quyidaicha ta’rif beradi “Kuntu‘di ismli elig (podsho) bo‘lib, u dono va adolatli ekanligi bilan dong taratgan edi. Uning himmat va muruvvati ham chek-chegara bilmas edi. Elig mamlakatni obod, elyurtni esa shod-xurram qilish istagi bilan yonardi. Uning shuhrati butun olamga yoyiladi. Ishlarini oliyjanoblik va saxovat bilan yuritganidan mamlakatda farovonlik va osoyishtalik hukm surar edi. Podsho mamlakatdagi barcha donishmandlarni ham ezgulik ishlariga jalb etadi”. [1] Yusuf xos Hojib asarida nafaqat hukmdor balki vazir fazilatlari haqida ham o‘z qarashlarini bayon etadi: Yusuf Xos Hojib o‘zining “Qutadg‘u bilig” asarida davlat xizmatini amalga oshirayotgan arboblarni qanday xususiyatlarga ega bo‘lishi lozimligi to‘g‘risida batafsil yozadi. U kim vazir bo‘lishi mumkinligi to‘g‘risida shunday deydi: Vazir “pishiq va odil bo‘lishi, boshqalarni ham shu yo‘lga undab turishi lozim. Vazirlik ulug‘ ish. Bu ishga ishonchli, yetuk va sara, uquv-idrokli, dono va yumshoq ko‘ngil, ayni paytda dadil va jur‘atli kishilar kerak”

“Vazirlikka rostgo‘y, yozuv-chizuv ishlaridan to‘la xabardor bo‘lgan kishi kerak. Uning xulq-atvori ko‘pchilikka manzur, tili bilan dili bir bo‘lishi lozim. Uyat-andisha egasi, dili kirsizlar bu amalga munosibdir. Ko‘zi to‘q, abjir, bilag‘on, sezgir, yaxshi yomonning farqiga boruvchilar vazirlikka loyiq bo‘ladi.”

“Boshliq tili va ko‘nglini to‘g‘ri tutadigan bo‘lsa, uning xodimlari, qo‘l ostidagi ishchilari ham to‘g‘rilik yo‘lini tanlaydi” [2]

Adolatli jamiyat qurishda adib o‘z e’tiborini ta’limga – bilimga alohida e’tibor qaratadi. Ideal davlatda har bir hokimiyat lavozimiga nomzodlar tayyorlanishi va mazkur vazifaga imtihonlar asosida tayinlanishini aytadi.

Bilimsizga dushman bilim, qilg‘i,

Yetar ikkovining shu qilg‘ilig‘i.

Shunga o‘xshar endi bu turkcha maqol,

o'qig in uni sen, dil-u jonga ol:
Uquvli kishiga zakovati esh,
Bilimsiz kishiga mukofot — so'kish.
Bilimliga bilim tugal ton, osh-ey
Bilimsiz qilig'i yovuz yo'ldosh-ey! [3]

Inson tomonidan egallangan bilimlarning hayotga tatbiq etilishi – moddiylashuvi saroy muhitida maslahatlar orqali namoyon bo'ladi. Bilim insonni bir pog'ona yuqoriga ko'tarsa, dono kishining maslahati uni yana bir pog'onaga ko'taradigan omillardandir [4] Yusuf Xos Hojib bilimli, ma'rifatli insonning davlat va jamiyat oldidagi mas'uliyatiga ancha kengroq qaraydi. Shu sababli bo'lsak kerak, Oyto'ldi poytaxtga, podshoh saroyiga xizmat uchun keladi. Haqiqiy olim sifatida Oyto'ldi podshoh – Kuntug'di bilan silliqqina til topishib keta olmaydi. Ular o'rtasida qarama-qarshiliklar ham bo'lib o'tadi⁶. Yusuf Xos Hojib qarashlarining eng muhim jihati uning bilimga nisbatan pragmatik yondashuvidir. Ya'ni bilimli inson o'z o'rganganlarini insoniyat farovonligi yo'lida xizmat qildirishi kerak, degan fikrga qat'iy ishonadi [5]

Yusuf Xos Hojib Oyto'ldi obrazida ham davlat, ham baxt xususiyatlarini birlashtiradi. Ularni bir-biri bilan chambarchas bog'liq xususiyatlar sifatida tasvirlaydi. Chindan ham, na boylik, na baxt mangu emas, ular birda bor, birda esa yo'q. Oy qorong'i tunni yoritish uchun xizmat qilsa, davlat va baxt inson hayotini yorituvchi omildir. Albatta, boylikka hirs qo'yish, baxtdan mast bo'lish yaxshilikka olib kelmaydi. Zero, boylik shunday asov ot, baxt shunday ayyor nozaninki, ularni aql-zakovat bilan jilovlamasa, egasini xorlikning tubsiz jarliklariga yiqitishi mumkin.

Xorijiy tadqiqotlarida "Siyosat-noma" va "Qutadg'u bilig"ga bo'lgan aqliy qiziqish hamdardlik darajasida qolib ketgan. Olimlar bu ko'p qirrali matnlarga faqat tom ma'nodagi yoki siyosiy tarixiy asarlar sifatida qarashgan. Biroq, har ikki mutafakkir o'z fikrlarining ma'muriy jihatini hisobga olgan holda chuqur ilmiy izlanishlarga loyiqdir. Qolaversa, so'nggi paytlarda nafaqat davlat boshqaruvi,

balki xo'jalik boshqaruvi sohasida ham duch kelgan muammolar ushbu matnlarning muhimligini yana bir bor ochib beradi.

Har ikkala asarda asosiy e'tiborni hukmdorga qaratilgan va davlat boshqaruvini yaxshi qiladigan fazilatlar ro'yxati sifatida beriladi. Ular orasida halollik, adolatlilik va xayrixohlik boshqaruv tushunchasini axloqiy darajaga keltiradigan narsalar sifatida birinchi o'ringa chiqadi. Ushbu tadqiqot birinchi navbatda axloqiy ma'muriy atributlarni tahlil qilib, ularning o'zaro bog'liqligini har tomonlama aniqlashga harakat qildi, ikkinchidan, ularni boshqaruv sohasidagi hozirgi axloqiy munozaralar bilan bog'lash. Yusuf Xass Hojib va Nizom al-Mulkning halollik va halollikka bo'lgan yondashuvlari zamonaviy boshqaruv nuqtai nazari bilan o'xshashligini ko'rsatadi, bu esa yashirin ishonchni asosli rahbar va izdoshlar munosabatlarining zaruriy sharti sifatida tan oladi. Boshqa tomondan, "Qutadgu bilig" va "Siyosat-noma" sof halollikni to'ldirmasa, qoniqarsiz deb topdilar. [5]

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Yusuf Hos Hojib "Qutadgu bilig" asarida boshqaruv adolat, donolik va ma'naviy mas'uliyatga asoslangan axloqiy davlat modelini yaratadi. Bu qarashlar bugungi kunda ham dolzarbdir: ular bizga ma'naviy poydevorsiz hokimiyat qonuniylikni yo'qotib, jamiyatni halokatga olib borishini eslatib turadi. Yusuf Hos Hojib falsafasi axloq va siyosatning birligiga da'vat, bu yerda hukmronlik qilish xizmat qilish demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boqijon To'xliyev. Yusuf Xos Hojib "Qutadgu bilig". – Toshkent, 2007 - 27B
2. Behzodjon Qurolovich Malikov (2021). Sharq mutafakkirlarining davlat xizmatlariga doir siyosiy qarashlari.// Scientific progress, 1 (4), 209B
3. Ergash Ochilov. Yusuf Xos Hojib. Hikmatlar. –Toshkent, 2013 – 24B.
4. Muhamedov A. (2025). Yusuf xos hojib falsafasida ma'naviy barkamol inson konsepsiyasi. *Acta nuuz*, 1(1.3), 137.
5. Muhamedov, A. (2024). Yusuf xos hojib falsafasida yetuk va barkamol avlod muammolari. *International scientific journal of Biruni*, 3(1), 280-289.

6. Kuşakcı, S., & İyigün, N. Ö. (2017). An Ethical Administration Trilogy: The Concepts of Integrity, Justice, and Benevolence Based on Kutadgu Bilig and Siyasat-Nama. *Is Ahlakı Dergisi*, 10(1), 115.